

KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMIDA TARIX DARS MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Davidova Gulnoza Mirzakarimovna
Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *kasb-hunar ta'limi tizimida tarix dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kasb-hunar ta'limi tizimi, metod, interfaol metodlar,*

Raqamli texnologiyalari davrida ta'lim tizimiga ko'plab tushuncha va atamalar, yangicha zamonaviy innovatsion metodlar (innovatsion usullar) qarashlar kirib keldi. Bugungi kunda ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan innovatsion yondashuvlar tashkil etadi. Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga interfaol metodlardan foydalanish – ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Hozirgi yoshlarni yangicha ishlashga, fikrlashga va tafakkur yuritishga o'rgatish davr talabi ekanligi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan asoslab berilgan edi.

Keyingi yillarda barcha kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish masalasi dolzarb etib ko'rsatilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to'liq tushunib etishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga olib keladi. Ushbu metodik tavsiyanomada pedagogik texnologiyalarning ta'rifi, tarkibiy tuzilishlari, interfaol ta'limning tasnifi, uslub, metod, mashq, o'yin tushunchalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Bunday yondoshuvlar tarix fanlari o'qituvchilari uchun muximdir. Hozirgi kunda zamonaviy metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish haqida to'xtalganda interfaol usullar bilan birga texnika vositalarining qo'llanilishi tushuniladi.

Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv- jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi. Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshirishni ta'min etadi. Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-

oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi.

Interfaol metodlar nima? Bu metod o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslangandir. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustakil karor kabul qilish, xisssiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, ma'ruza orqali materialning bor yo'g'i 20%, munozara orqali 75% o'zlashtiriladi. Amaliy o'yin paytida esa bu ko'rsatkich 90% ga boradi. В.И.Рыбальский bergan ma'lumotiga ko'ra oliy o'quv yurtlarida amaliy o'yinlarni keng tadbiiq etilishi ba'zi fanlarning o'zlashtirilishi samaradorligini oshiradi va ayni paytda ularga ajratilgan vaqtni 30-50% qisqartirishga olib keladi. O'quv jarayoni yanada ijodiy va qiziqarli bo'lgani holda, o'quvchilarning faolligi majburiy tus oladi, chunki interaktiv o'zaro aloqa jarayonida yuzaga kelgan vaziyat qatnashchilardan faollikni talab etadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilor tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Bu ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar umumta'lim fanlarda muhim jihat hisoblanadi. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Ta'lim jarayonida dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Tarix fanlarida obrazli tasavvur qilish orqali o'quvchining ichki dunyosi, tasavvur doirasi kengayadi hamda voqeani bayon qilish orqali nutqiy savodxonligi oshib boradi. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar yordamga keladi. Sababi bir xil an'anaviy usullardan doimiy foydalanish o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini so'ndiradi, darsni zerikarli bo'lishi to'g'risida oldindan xulosasi shakllanib qoladi. Hozirgi davrning zamonaviy o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi innovatsion shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an'anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. Maktab dasturidagi tarix fanlari orqali o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi, har bir davrga xos vaziyatlar ustidan tahliliy yondashuvini shakllantiradi. Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi "Ko'zgu" desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim

Interfaol metodlarning qo'yidagi shakllaridan ta'lim jarayonida keng ko'lamda foydalanilmoqda:



"Kichik guruhlarda ishlash" usulidan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini ta'minlaydi, har bir o'quvchining munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Interfaol ta'lim asosida dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkorlikda, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlarga aylanadi.

3. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

Eng muhimi, o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni, o'quvchining ehtiyoj, hohish, istagi qondiriladi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchining o'quv maqsadlarga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi.

Tarix darslari samaradorligini oshiradigan interfaol metodlar.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchi-yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. "Interaktiv" so'zi ingliz so'zidan olingan bo'lib "Interakt", ya'ni "Inter" - bu "o'zaro", "akt" - "harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini bildiradi.

Tarix darlarini o'tishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni dars samaradorligini ortishda ahamiyati katta. Jumladan: «Mini-leksiya» Mini-leksiya zamonaviy ta'limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Amal qilish mexanizmi qo'yidagicha: o'qituvchi 10-20 minut ichida ma'ruza o'qiydi. O'quvchilar diqqat bilan quloq solishadi. Ma'ruza o'qib bo'lganidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarga 3-5 minut vaqt berib ma'ruzaning asosiy mazmunini tezis shaklida konspekt qilishga imkon beradi. Konspekt tuzish jarayonida o'quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o'qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishlari mumkin. «Mini-leksiya»ning 2-ko'rinishi Bu usul yuqorida ko'rsatilgan strategiyaning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Mazmuni qo'yidagicha: 10-20 minut davomida o'qituvchi ma'ruzani o'qiydi. O'quvchilar diqqat bilan quloq solib, qisqa konspekt yozib borishadi. Ma'ruza tugagandan keyin o'qituvchi o'quvchilarga 3-5 minut vaqt beradi va bu vaqt ichida o'quvchilar, juftliklarga bo'linib, bir-biri bilan konspektlarini almashib, o'qib chiqishadi va mulohazalari bilan o'rtoqlashadi. Noaniqliklar, xatolar tuzatiladi. O'qituvchiga ham savol berishlari mumkin. Jadallashtirilgan ma'ruza Ma'ruza jarayonida o'qituvchi ma'ruzaning an'anaviy shaklini o'quvchilarni faol o'qitish va tanqidiy fikrlashga qiziqtirish uchun o'zgartiradi. Natijada jadallashtirilgan ma'ruzaning shaqli vujudga keladi.

Tayyorgarlik bosqichi (chaqiriq). O'qituvchi mashg'ulot boshlanishida tinglovchilar fikrini o'tiladigan materialga to'playdigan topshirik beradi. 3-5 daqiqa davomida mavzu bo'yicha o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan bilimlarni tahlil qilib, ularni ro'yxat ko'rinishida yozishni taklif qiladi. Muddat o'tgandan keyin o'qituvchi o'quvchilardan o'z g'oyalari bilan o'rtog'lashishni so'raydi va ularni ixcham shaklda doskaga yozib chiqadi. O'quvchilar yordamida to'plangan g'oyalarni kategoriyalarga bo'lish mumkin. SHunday so'ng, o'qituvchi 10-20 daqiqa davomida ma'ruzaning 1-chi qismini o'qiydi (anglash). Ma'ruzaning birinchi qismidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarga o'zlarining g'oyalarni ma'ruzadan eshitganlari bilan taqqoslashni so'raydi (fikrlash). Keyingi tayyorgarlik faoliyati (chaqiriq). Endi o'qituvchi o'quvchilarga juftlikda ishlab, ularning oldingi bilimlarini aniqlash va bu bilan ma'ruzaning keyingi qismini eshitish maqsadini belgilovchi qisqa topshiriqlar beradi. Ma'ruzaning davomi - anglash va fikrlashni o'z ichiga olgan sikl qaytarish. Yaquniy topshiriq (fikrlash). Bu topshiriq turli shakllarda berilishi mumkin. Masalan: 10 daqiqali esse; 5 daqiqali esse; ma'ruzada keltirilgan eng muhim jihatlariga tegishli ochiq savolga javob berishlarini so'rash. Aqliy hujum Aqliy xujum strategiyasi universal uslub bo'lib, uning vazifasi yangi g'oyalarni yaratishdir. Aqliy xujum muammoni hal qilayotgan kishilarning quproq aql bovar qilmaydigan va xatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu strategiyani ko'llashda o'qituvchi yozuv taxtasida savolni yozadi va o'quvchilardan berilgan fikrlarini (javoblari) yozib boradi. Auditoriyada aytilgan barcha g'oyalarni yozuv taxtasida yozish paytida o'qituvchi g'oyalarga izoh bermaydi, fikrlar savolga bog'liq holda aytiladi. Asosiy qoidalardan biri, har qanday g'oyani aytish mumkin, fikr hech qanday cheklovlarsiz iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim.

Aqliy xujumni ma'ruzalarda - yakka tartibda yoki juflikda, amaliy mashg'ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda ham o'tkazish mumkin. Ushbu strategiya mashg'ulotlarda o'quvchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo'qotishga, g'oyani izlashga sharoit yaratadi. Tayanch so'zlar bo'yicha chaqiriq. U yoki bu mavzu bo'yicha bilimlarni tiklash usullaridan biri «Tayanch» so'zlar bo'yicha chaqiriq pedagogik strategiya hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun o'quvchilarga 3-5 tayanch so'zlar beriladi. O'quvchilar shu so'zlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'z variantlarini taklif etishadi. Bu mantiqiy bog'lanish 3 daqiqali esseda yoritilishi mumkin. Uylang (Juflikda ishlang) Fikr almashing Bu ancha jadallik bilan bajariladigan birgalikdagi faoliyat bo'lib, o'quvchilarni axborot ustida fikrlashga va o'z fikrlarini sheriklar yordamida - aniq shaklga kiritishga yo'naltiradi. O'qituvchi odatda «ochiq», uzoq fikrlashga undaydigan savolni oldindan tayyorlab qo'yadi va ayrim o'quvchilardan qisqa javoblar yozishni so'raydi. So'ngra, o'quvchilar jufliklarga bo'linib, bir-birlari bilan o'z muloxazalarini o'rtoqlashadilar va ikkala fikrni o'z ichiga olgan yagona javobni tayyorlashga o'rinadilar va nihoyat, o'qituvchi bir necha juflikdan (vaqt etishiga bog'liq holda) o'ttiz sekund ichida auditoriyaga o'z ishini qisqacha yaqunini bayon etib berishni so'raydi. «Klaster» «Klaster» so'zi g'uncha, bog'lan ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qullash mumkin. U asosan yangi fikrlarni o'yg'otish, mavjud bilimlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan strategiya bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzuni o'rganishni boshlash paytida klasterlar tuzishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi.

- Sinf yozuv taxtasi o'rtasidagi katta qog'oz varag'iga «kalit» so'zi yoki so'z birikmasini yozing.

- Sizni fikringizcha, bu mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar yoki so'z birikmasini yozib chiqing.

- Tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni ko'rsating.

- Eslagan variantlaringizning hammasini yozing. Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi. Venn diagrammasi. Axborotni grafik asosda tashkil qilishning bu shakli umumiy va farq qiladigan tomonlarga ega bo'lgan ikki yoki uch mavzuni taqqoslash jarayonida ishlatiladi. Chap doira bir mavzuning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, ung doirada ikkinchi mavzuning o'ziga xos tomonlari yozib chiqiladi. Doiralarning tutashgan joylaridan esa ikkala mavzuning umumiy tomonlarini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Venn diagrammasi ustida ishlash jarayonini qo'yidagicha amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Aqliy xujum yordamida taqqoslashning asosiy parametrlarini aniqlashdir.

2. Venn diagrammasi ustida ishlash.

3. Taqqoslash natijalarining prezentasiyasi. Bu ko'rinishdagi interaktiv ish o'quvchilarning aktiv ishtirokida bajarilib, analitik fikrlash ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi.

Kichik guruhlarda ishlash Kichik guruhdarda ishlash zamonaviy ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar birgalikda qarorlar qabul qilishadi, birgalikda turli-tuman manbalardan bilim olishni o'rganishadi, g'oyalar va axborotlarni ijodiy birlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishadi, birgalikda turli masalalar echimini topishga harakat qilishadi. Bunday ta'lim jarayonida ular bir-birlarini fikrlarini xurmat qilishga, o'z fikrlarini himoya qilib, etkazishga, hz guruhi uchun javobgarlik hissiyatini shakllantirishga muvofiq bo'ladilar. Kichik guruhlarining shakli: yoki juftliklar, yoki uch ko'pi bilan olti, etti o'quvchilardan iborat bo'lgan birikma.

O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylilikni taminlaydi, yangi bilimlar olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qullab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o'quv jarayonida yakka tartibda va juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyixalar, rolli o'yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Zamonaviy informatsion texnologiyalarga bo'lgan qiziqish har bir o'quvchi bilan muloqotga kirishishning eng samarali usuli bo'lganligi uchun bu usulni har bir sinflarda qo'llash imkoni mavjud. Ushbu usulni foydali jihati shundaki, voqealar va test savollari tanlanayotganda o'tilayotgan mavzu ko'lami va sinfdagi o'quvchilarning bilim darajasi inobatga olinadi va natijada ushbu metodlar barcha mavzular uchun qulay hamda o'zlashtirishni osonlashtirilishiga olib keladi.

Shunday qilib, yuqorida aytilgandan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin, ya'ni interaktiv texnologiyalar rahbar va mutaxassislarda davr talabidan kelib chiqib, yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyatini rivojlantiradi. Dars jarayonlarida o'qituvchi dars maqsadiga erishiladi va o'quvchilar esa nazariy, amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.N.Narziyev. Tarix darslarida pedagogik texnologiyalar: interfaol metodlar va ularning amaliy ahamiyati. Toshkent-2016 yil.
2. Tarix darslarida metodlar. <http://shuhratbek.uz/tarix-darslarida-qiziqarli-oyinli-usullardan-foydalanish/>
3. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
4. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.

6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. *Scientific Impulse*, 1(3), 757-763.

7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.

Saydaliyevich, U. S., & Sardorbek, S. (2022). FIGHT AGAINST OFFENSES. RESPONSIBILITY OF MILITARY SERVICES. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 11(1), 359-366.

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2022). Abduganiyev Jamhurbek Isroil ogli. "Life of the Faculty of Military Education." *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 6-9.

Tojimatovich, A. A., Saydaliyevich, U. S., & Isroil ogli, A. J. (2022). Life of the Faculty of Military Education. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 6-9.

Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 6, 64-67.

Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 172-178.

Saydaliyevich, U. S. (2021). Abdulhakimov Shahzodbek Abdurashid ogli, and Xofizov Javohirbek Qurbonboy ogli. "UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9, 924-929.

Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). Education of young people in the spirit of military and patriotism. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 572-574.